

## O‘ZBEKISTONDA PSIXOLOGIK XIZMATNING BUGUNGI KUNDAGI ISTIQBOLLARI

**Raxmonova Shoxista Safar qizi**  
**Xamrayeva Momogul Mammud qizi**

**Annotatsiya:** Ushbu tezisda O‘zbekistonda psixologik xizmatning bugungi kundagi istiqbollariga hissa qo‘shib kelayotgan olimlarimizning faoliyat jaroyonlari , usullari ,metodlari haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so‘zlar:** psixologik xizmat, bugungi kundagi istiqbolli yo‘nalishlar, shaxs psixologiyasi, kopgnitiv jarayonlar, neyropsixologiya , suitsid holatini oldina olish choralar, o ‘smirlarga psixologik xizmat.

Jannatmakon yurtimizda barcha sohalar kabi Psixologik xizmat paydo bo‘lishi shakllanishi bugungi kundagi istiqbollari haqida fikr yuritar ekanmiz , psixologik xizmatning paydo bo‘lishi tarixiga bir nazar tashlasak.

O‘zbekistonda psixologik xizmat haqida nizom 1996-yili Xalq ta’limi Vaziri tomonidan tasdiqlangan . 2001-yilda bu nizomga o‘zgartirish kirtildi.

Bugungi kunda psixologik xizmat ko‘rsatishning istiqbolli yo‘nalishlaridan mehnat psixologiyasi bo‘yicha Baratov ustozimiz ilmiy izlanishlarni davom ettirib kelmoqdalar. Osiyo Xalqaro Universitetida faoliyat yuritib kelayotgan ustozlarmiz ilmiy izlanishlari bilan o‘rtoqlashadigan bo‘lsak. Avvalo Olimov Temur Hasanovichning “PSIXOLOGIK XIZMAT NAZARIYASI VA AMALIYOTIDAGI ZAMONAVIY TENDENSIYALAR VA MUAMMOLAR” nomli maqolarida mijozga yo‘naltirilgan terapevt mashq guruhiy holatda alohida juftliklarda amalga oshirilishi, sherik tanlash, mijozdan sherigiga aytib berish qiyin kechadigan, masalan, yolg‘on gapirgan, nohaq bo‘lgan vaziyatlarni so‘zlab berish maksimal darajada tushunishi va hikoyani qayta so‘zlab berishi, sherikka teng munosabati haqida fikr yuritilgan .

Zamonaviy transakt tahlil –shaxs nazariyasini, kommunikatsiyalar nazariyasini, bolalar rivojlanish nazariyasini o‘z ichiga oladi. Amaliyotda u alohida odamlar bilan ishslashdan tashqari er-xotin, oilalar va turli guruhlarni korrektsiyalash tizimini tashkil etadi.

Olimov Laziz Yarashovich Buxoro davlat universiteti, Psixologiya va sotsiologiya kafedrasi dotsenti “SUD PSIXOLOG EKSPERTI KOMPETENTLIGINING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI” mavzusidagi maqolalarida psixologik xizmatning sud ekspertiza ishlaridan namunalar keltirildi.

Respublikamizda so‘nggi yillarda sudlov va huquq-tartibot organlari faoliyati samaradorligini oshirish, sud psixolog ekspertlarni tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va ularning kasbiy tayyorgarlik darajasini oshirish masalalariga alohida e’tibor qaratilib kelinmoqda. “Sud ekspertizasi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunida sud ekspertizasi sohasidagi munosabatlarni tartibga solish borasida muhim vazifalar belgilab berilgan. Bu qonunda ko‘rsatib o‘tilgan bunday muhim vazifalarni bajarishda sud psixolog ekspertlari ijtimoiy-psixologik kompetentligini takomillashtirishga

oid tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etadi. Shu boisdan, sud psixolog ekspertlari ijtimoiy-psixologik kompetentligini oshirish, ularning shaxsiy sifatlariga xos bo‘gan xususiyatlarni ro‘yobga chiqarish, psixokorreksion va rivojlantiruvchi usullar orqali ularning kasbiy faoliyat samaradorligiga bevosita ta’sir etuvchi ijtimoiy-psixologik kompetentlik omillarini shakllantirish dolzarb muammo sifatida qaraladi.

Olmos Ravshanovich Avezovning “EKSTREMAL VAZIYATLARDA AHOLINING TURLI QATLAMLARIGA PSIXOLOGIK XIZMAT KO‘RSATISH” nomli mazkur maqolada ekstremal vaziyatlarda aholining turli qatlamlariga psixologik yordam ko‘rsatishning ahamiyati va bu boradagi muammolar tahlil qilinadi. Bolalar, qariyalar, nogironlar va favqulodda xizmat xodimlari kabi ijtimoiy guruhlarning ehtiyojlariga moslashgan yondashuvlar va psixologik xizmat usullari muhokama qilinadi. Natijalar asosida ekstremal vaziyatlarda psixologik yordam ko‘rsatishning samaradorligini oshirish uchun tavsiyalar berilgan.

Ziyodullo Sattorovich Elov “ Suitsidal xulq-atvorning zamonaviy psixologiyada o‘rganishi: tahlillar va nazariyalar” nomli maqolarida hozirda Respublikamizda deviant xulqli, og‘ir tarbiyali, suitsidga moyil muammoli o‘smir yoshlar bilan maktab psixologi, pedagoglar jamoasi, mahalla qo‘mitalari, voyaga yetmaganlar bilan ishslash komissiyalar, bolalar psixologlari ish olib borishmoqda. Professor B.M.Umarovning ta‘kidlashicha, 13-17 yosh oralig‘ida sodir etilayotgan jinoylarning sababiasosan, kattalarning bee’tiborligi, ota-onalar va o‘qituvchilar bilan o‘zarokelishmaslik holati, yoshlarning muqaddam sudlangan shaxslarning salbiy ta’siriga tushib qolish holati, spirtli ichimliklarga, giyohvandlik moddalari kabilarga berilishi oqibatida kelib chiqmoqda.

Psixologik adabiyotlarda o‘smirlarning 11-15 yoshgacha bo‘lgan davri jinsiy yetilish, faol jismoniy o‘sish, shaxs sifatida shaklanish davri deb sifatlanadi. Ayni shu davrda insonlarning fe‘li, ijtimoiy munosabatlari shakllanib, odamlarga va atrof voqealikka bo‘lgan munosabatlari ham yaqqol ko‘zga tashlana boshlaydi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. Nishonova .Z.T.Psixologik xizmat.O‘quv qo‘llanma.Toshkent 2007-yil.7-bet
- 2.Olimov, T. (2020). Bo‘lajak oliv ma’lumotli mutaxasislarda fuqarolik madaniyatini shakllantirishning ayrim yo‘nalishlari. Integration of science, education and practice. Scientific-methodical journal, 1(1), 20-27.
3. Olimov .L.Y . “SUD PSIXOLOG EKSPERTI KOMPETENTLIGINING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI”.Образование и инновационные исследования (2023 год № 8)
4. Avezov O.R. Oila psixoterapiyasi nazariyalar. Darslik, ” Kamolot” nashriyoti, 2024 yil. 316 bet.
- 5.Avezov O.R. Ekstremal vaziyatlarda psixologik xizmat Darslik,”KAMOLOT” nashriyoti, 2023 yil. 332 bet.
- 6.Avezov O.R., Z.J.Ahmedova. Ekstremal vaziyatlar psixologiyasi Darslik,”KAMOLOT” nashriyoti, 2022 yil. 256 bet

7.Avezov O.R. Deviant xulq-atvor psixologiyasi. Darslik, ” Buxoro viloyati bosmaxonasi” nashriyoti, 2019 yil. 495 bet.

8.Ravshanovich, A. O. HISSIY ZO ‘RIQISHLAR VA OBSESSIYALARDAN XALOS BO ‘LISH USULLARI VA TAVSIYALAR. ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ ТАДҚИҚОТЛАР: ДАВРИЙ АНЖУМАНЛАР: 10-ҚИСМ, 87.

9 Avezov, O. R. (2024). SHAXSNING EKSTREMAL VAZIYATLARDA STRESSBARDOSHЛИGINI NAMOYON BO ‘LISHI. SCIENTIFIC APPROACH TO THE MODERN EDUCATION SYSTEM, 3(31), 285-288.

10.[https://cyberleninka.ru/article/n/suitsidial-hulq-atvorning-zamonaviy-psihologiyada o'rganilishi tahlillar va nazariyalar](https://cyberleninka.ru/article/n/suitsidial-hulq-atvorning-zamonaviy-psihologiyada-o'rganilishi-tahlillar-va-nazariyalar).

